

SHO'RLANGAN TUPROQLARDA G'O'ZANING O'SISH FIZIOLOGIYASI

O'razaliyeva Kamola To'lqin qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqoladan shu kabilarni bilib olish mumkinki, bunda hozirgi kunda dolzarb masala bo'layotgan sho'rlangan tuproqlar, sho'rxoklar ularning ta'sirida esa g'o'zani o'stirish, shuningdek yetishtirishning fiziologiyasi va shu bilan birga o'simlik fiziologiyasi haqida ham so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. Sho'r tuproqlar, sho'rxok tuproqlar, g'o'za yetishtirish, fiziologiya, o'simlik fiziologiyasi.

Suv xo'jaligi soxasini rivojlantirish, mavjud suv manbalardan unumli foydalanish va ekin maydonlarning sho'rash darajasini kamaytirish ddolzarb vazifalardan sanaladi. Shu bois, keying yillarda yurtimizda yer va suv resurslardan samarali foydalanish, suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi notig'i o'rinnbosari, O'zbekiston former, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raising A.Haitov hamda tegishli vazirlik va idora rahbarlari ishtirok etgan seminarda tuproqning sho'rlanish darajasini pasaytirish va uning oldini olish borasida tumanda amalga oshirilayotgan ishlar haqida so'z yuritiladi.

Sho'r yuvish uchun dastlab yer maydoni chizillanishi, so'ngra tekislanib, marzalar olinib, suv toplash uchun pollar va o'q ariqlar hosil qilinishi, ularning kattaligi tuproqning suv sindiruvchanlik xususiyati, yerning qanday tekislanganligi va nishabiga qarab turlicha olinishi mumkinligi qayd etildi. Ta'kidlaganidek, sho'rlangan tuproqlarning sho'rini yuvish uchun eng maqbul vaqt oktabr oyidan dekabr oyigacha davom etadi. Ba'zida esa qishki sovuqlar sababli shor yuvish bahorga qoldiriladi. Bahorgi sho'r yuvishlarning natijasi esa kuzgi yuvishdagidek bo'lmaydi. Bunda ekishga tayyorlash va ekish ishlarining kechikishi kuzatiladi.

Bundan avvalgi yillardagidek, oylab sho'r yuvishga suv berishning imkoniy yo'q. Demak, mavjud suvlardan oqilona foydalanish uchun yerlarni sho'r yuvishga sifatli tayyorlash lozim, - dedi A. Haitov²⁰, Qoraqalpog'iston Respublikasida 2020-2021-yillarda kuzgi-qishki davrda jami 155,72 ming hektar maydonda sho'r yuvish tadbirlarini o'tkazish belgilangan bo'lib, shundan 23,37 ming hektar kuchli sho'rlangan maydon bo'lsa, 77,85 ming hektar o'rta va 54,49 ming hektar kuchsiz sho'rlangan maydon hisoblanadi.

Shu boisdan barcha tumanlardagi ekin maydonlar kesimida sho'rlanish darajasi va sho'r yuvish tadbirlarini o'tkazish jadwallari ishlab chiqilganligi haqida ham ba'zi bir ma'lumotlarini aytib o'tdi. Shorlangan tuproqlarga kelsak.

Sho'rlangan tuproqlar – tarkibida suvda oson eriydigan zararli tuzlar 0,1% yoki suvli sòrimdag'i quruq qoldiq miqdori 0,25 foiz (0.3%)dan ko'p bo'lgan tuproqlar. Sho'rlangan tuproqlar, asosan, quruq iqlimli mamlakatlar (Pokiston, Hindiston, Xitoy, AQSH, O'rta Osiyo, Afrika, Avstraliya, Januiy Amerika va boshqalar)da katta-katta maydonlarda, shuningdek sho'rlanmagan tuproqlar orasida esa, kichikroq massivlarda dog' ko'rinishida tarqalgan. O'rta Osiyo, Janubiy Qozog'istondagi sug'oriladigan maydonlarning yarmidan ortig'i, o'zlashtiriladigan yerlarning 75-80 %iga yaqini turli darajada sho'rlangan. Tuproqning sgorlanganlik darajasi zararli tuzlarning umumiyligi miqdoriga ko'ra (gips, miqdori olib tashlangan holda) belgilanadi. Shu belgiga asosan, sho'rlangan tuproqlar kuchsiz (zararli tuzlar miqdori 0.1-0.2 %) o'rtacha (0.2-0.4 %) kuchli (0.4-0.8 %) juda kuchli sho'rlangan (sho'rhoklar, 0.8 %dan ko'p) xillarga bo'linadi. Tabiiy sho'rlangan tuproqlar kimyoviy tarkibi (sho'rlanish tipi)ga ko'ra xloridli, sulfat xloridli, xlorisulfatli, sulfatli, sodasulfatli, sulfatsodali, xloridsodali, sodali, sulfat yoki xloridgidrokarbonatli (ishqoriy yer elementlari) kabi sho'rlangan yerlarga bo'linadi. Tuproq sho'rlanishining salbiy oqibatlari oldini olish uchun sug'orish rejimini to'g'ri ta'minlash, kuchli sho'rlangan tuproqlarni katta normalarda yuvish, sho'rlanish jarayoni yo'nalishini tubdan o'zgartirish uchun drenajlar yordamida grund suvlarning sun'iy oqimini vujudga keltirish zarurdir. Shunday qilib, sho'rlagan tuproqlarning eng kuchlisi sho'rhoklar deyiladi, ya'ni bu tuproqning ko'proq miqdorni tashkil etadi.

Sho'rhok tuproqlar daryo quyilishi tekisliklari va deltalarda, tog' oldi vodiylaida va pastqam yerlar depressiyalarda rivojlangan. Bu tuproqlar asosan cho'l zonasida keng tarqalgan bo'lib, och tusli quyi pastki mintaqasida tarqalgan. Barcha sho'rhoklar gumuz gorizonti qatlamia ega bu qatlam o'z navbatida o'simliklar bilan qoplangan. Sho'rhoklar sug'oriladigan tuproqlar orsida quyi tekisliklarda va sug'oriladigan yerlarda tashqarida tarqalgan. Kerakli meleorativ tadbirlar amalga oshirilsa, sug'orish uchun tayyorlash mumkin bo'ladi. Sho'rhoklarda tuzlar yuqori gorizont qatlamlarida joylashganligi bois suvda eruvchan tuzlar 3dan 20-30 % gacha yetadi.

Sho'rlangan tuproqlarda g'o'zani yetishtirish fiziologiyasi deganimizda, o'zimizda, erta bahordan dalaga paxta ekilaboshlaydi va may oylariga kelib uning tagini yumshatish uchun kichik chopiq qilinadi. Shu tariqa saraton deyiladi o'sha paytida paxta sekinlik bilan g'o'zaga aylana boshlaydi. Paxta g'o'za bo'lganicha 2 yoki 3 marta sug'orish orqali unib chiqadi. So'ngra, g'o'zaga kirgan mahal kunning issig'i tufayli yerlarda qatqaloq singari o'yiq yoriqlar suv yuradigan agatda bo'ladi. Buning sababi esa paxtani chopiq qilib bo'lganidan so'ng o'stirish uchun silitra sepiladi.

Shundan so‘ng esa suv quyiladi. Selitra sepilishi natijasida yerlar yumshaydi va qurib ketaveradi. Shuning munosibati bilan g‘oza chiqayotgan paytida ko‘roq suv talab etiladi. Sababi tuproqning sho‘rlanishi yerning suvgaga to‘ymasligi oqibatidadir. Shundan so‘ng g‘oza qanchalik ko‘p suv ichsa shunchalik tez o‘sadi va paxtaga ayanadi. Sho‘rlangan tuproqlar shuning natijasida yuzaga keladi. Buning yana bir sababi shuki, sho‘rlangan tuproqlar yillar davomida xech nima ekilmagan chirindiga boy bo‘lgan tuproqlar sirasiga kiradi. Chunki u quyoshning issigida toblangan suv ham tegmagan tuproqlardir. Agarda biz o‘sha tuproqning malum qismini ekiladigan yer uchun ajratsak, o‘sha yilgi hosil o‘tkan yillarga nisbatan birmuncha ko‘p hosil qiladi. Sho‘rlangan tuproqlar asosan quruq joylarda ko‘proq uchraydi. G‘o‘zaning fiziologiyasi ya’ni uning organlari, sistemasi kabilarni o‘rgatadi shuningdek.

Fiziologiya (Yun, physis-tabiat va ... logiya-ta’lim) – organizmlar va ular qismlari, sistemalari, organlari, to‘qimalari va hayot faoliyatini o‘rganadigan fan. O‘rganish ob’yektiga binoan, odam, hayvonlar fiziologiyasi va o‘similar fiziologiyasi bo‘ladi. Fiziologiya, Anatomiya, sitologiya, histologiya va ayniqsa biokimyo hamda biofizika bilan uzviy bog‘langan, u fiziologik jarayonlarni tushuntirishda kimyoviy va fizik metodlar hamda tushunchalarda foydalanadi.

O‘simlik fiziologiyasi – o‘similar hayot faoliyati umumiyligi qonuniyatlarini o‘rganadigan fan. O‘simlik fiziologiyasi o‘simliklarni o‘z tanasini ticklish, ko‘payishi zarur bo‘lgan mineral moddalar va suvni o‘zlashtirishi, o‘sishi, rivojlanishi, gullashi va meva hosil qilishi, ildizdan(mineral) va havodan(fotosintez) oziqlanishi, nafas olish, biosintez qilishi, zaxira moddalarni to‘plashi va boshqalar jarayonlarni o‘rganadi. O‘simliklar fiziologiyasi hayotiy jarayonlarning tashqi muhit bilan bog‘liqligini ochib berish orqali o‘simliklarning umumiyligi mahsuldarligi, oziq qiymati, organ va to‘qimalarning texnologik sifatini oshirish usuli va metodlarning nazariy asoslarini tadbiq qiladi. Fiziologik tadqiqotlar o‘simliklarning o‘sishi va mo‘lhosil berishi uchun zarur bo‘lgan tuproq va iqlim sharoitlari hamda ulardan oqilona foydalanishning nazariy asosi hisoblanadi yashil o‘simliklar quyosh nuridan energiya manbai sifatida foydalanishi va uni organik birikmalarning kimyoviy energiyasiga aylantirishi, ya’ni fotosintez jarayonini amalga oshirishi bilan boshqa organizmlardan farq qiladi. O‘simliklarning o‘ziga xos xususiyatlari ularning umumiyligi anatomik va morfologik tuzilishi bilan chambarchas bog‘liq. O‘simliklar organizmi, odatda, yer ustki va yer ostki qismlarining shoxlanishi tufayli juda katta satanic egallaydi. Bu holat ularning tuproq va havoning katta hajmi bilan bog‘lanishiga imkon beradi. O‘simliklarda doimiy, o‘zgarmas ichki muhit bo‘lmasligi tufayli ular to‘qimalarning harorati, kislorod va karbonat angidrid miqdori hamda boshqa ko‘rsatkichlari o‘zgarib turadi. Ularning tashqi muhit o‘zgarishiga moslanishi (adaptatsiya) ham butunlay boshqacha yo‘l bilan amalga oshadi. Shuningdek, g‘o‘za o‘simligini yetishtirishda ham shu kabi

yo'llardan foydalanadi asosan g'o'za o'simligi mineral moddalar, suvni o'zlashtirish, fotosintez kabi boshqa jarayonlar orqali amalga oshadi.

Shunday qilib, g'o'zani yetishtirish uchun avvalo g'o'zaning o'ziga kerakli mineral o'g'itlar, biosintez, fotosintez kerak balki, sho'rangan tuproqda ham g'o'zaning urishida kam miqdorda bo'lsa ham yordam beradi. Shuningdek, sho'rangan tuproqlar g'o'zanining yetishtirishda tepada sanab o'tganimizdek mineral o'g'itlardek birdek xizmat qiladi.

Paxta sho'rلانish chegarasi $7,7 \text{ dS m}^{-1}$ bo'lgan o'rtacha sho'rga chidamli ekinlar qatoriga kiradi. Sho'rланish g'o'zaning o'sishi, hosildorligi va tola sifati uchun jiddiy tahdiddir. Tuz stressiga sezgirlik o'sish bosqichiga va tuz turiga bog'liq. Paxtaning sho'rланishga bo'lgan munosabatini tushunish, uning qarshilik mexanizmi va boshqaruv usullarini o'rganish sho'rangan sharoitda paxta unumdorligini yaxshilash strategiyasini ishlab chiqishda yordam berishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, unib chiqish, paydo bo'lish va ko'chat bosqichlari keyingi bosqichlarga qaraganda sho'rланish stressiga ko'proq sezgir. Tuzli stress gullahning kechikishiga, meva berishning qisqarishiga, mevalarning to'kilishiga va ko'za vaznining pasayishiga olib keladi, bu esa pirovardida chigitning hosildorligiga ta'sir qiladi. Metabolik fermentlarning depressiv faoliyati, ya'ni: kislotali invertaz, ishqoriy invertaz va saxaroza fofat sintaza sho'rланishda tola sifatining yomonlashishiga olib keladi. Natriyning haddan tashqari chiqarib tashlanishi yoki uning bo'linishi g'o'zaning tuz ta'sirida asosiy moslashish mexanizmi hisoblanadi. Enzimatik va ferment bo'limgan antioksidantlar genlarining yuqori reguliyatsiyasi tuzga chidamli g'o'za navlarini rivojlantirish uchun muhim moslashuvchan salohiyatni taqdim etadi. Chigitni tayyorlash ham sho'rangan tuproqlarda g'o'zaning unib chiqishini yaxshilashning samarali usuli hisoblanadi. G'o'za germplazmasining ichki va o'zaro o'zgarishi marker yordamida seleksiya yordamida tuzga chidamli navlarni yaratish uchun ishlatalishi mumkin. Bundan tashqari, transgenik yondashuv sho'rangan sharoitda paxta hosildorligini oshirishning istiqbolli varianti bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. S.A.Azimboyev – dehqonchilik, tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari – T. 2006y. 15bet.
2. Xo'jayev J. O'simlar fiziologiyasi, T. 2004;
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan.
4. <http://uz.m.wikipedia.org>
5. <http://xs.com>
6. <http://google.com>